XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 7 - yanvar VI-49-3-7-100-K/22 Payariq tuman hokimligi

Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yildagi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametirlari to‘g‘risida

Byudjet kodekisining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32-841-sonli ko‘rsatmasi, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashing VI chaqiriq, qirq to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni va Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati mahalliy byudjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq, Payariq tuman mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 130 880 800 ming so‘m, xarajatlari 264 530 795 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 133 649

995 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

-2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

-2022-yil uchun tumanning, tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

-2022-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 495 574 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmi 12 477 668 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. 2022-yil uchun tumanning, tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 892 000,0 ming so‘m etib belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2022-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashi qaroriga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya

qilishdagi aksiz solig‘i;

- aylanmadan soliq;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

- ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im;

- avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar.

- Mobil aloqa xizmatlari uchun, tamaki mahsulotlari uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar tuman mahalliy byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 70 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

-foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbayida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 30 foiz miqdorida tuman byudjetiga;

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari) 10 foiz miqdorda tuman byudjetiga.

9. Tuman mahalliy byudjetining xarajatlar yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar tasdiqlansin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (J.Axunov):

-byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

-soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

-tegishli ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Sharipov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **Nurmatova N. Z.**

Халқ депутатлари Пайариқ туман
Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-49-3-7-100-K/22-сон қарорига
1-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari

Ming so‘mda

T/r	Daromad turi	Jami
JAMI DAROMADLAR		130 880 800
1	Foyda solig‘i	787 500
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 003 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	34 582 800
4	Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliqlar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 549 000
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	11 797 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 450 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 249 400
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 657 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 615 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 754 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	400 000
12	Yig‘imlar	2 588 000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	56 100
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo	15 666 000
15	Mobil aloqa xizmati	8 925 000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	16 801 000

Халқ депутатлари Пайариқ туман
Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-49-3-7-100-K/22-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Payariq tuman mahalliy byudjeti xarajatlari miqdori, Jami		**264 530 795**
1	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	16 016 305
2	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	11 483 183
3	Tuman tibbiyot birlashmasi	95 460 370
4	Tuman madaniyat bo‘limi	4 202 937
5	Tuman turizmni rivojlantirish bo‘limi	3 890 415
6	Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	680 571
7	Tuman veterinariya va choravachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 483 448
8	Tuman irrigatsiya bo‘limi	1 428 128
9	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 585 736
10	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1 093 130
11	Tuman hokimligi	124 266 153
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Payariq tumanidagi muassasalar	633 547
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	181 499
14	Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	1 125 368

Халқ депутатлари Пайариқ туман
Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-49-3-7-100-K/22-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori

Ming so‘mda

T/r	Daromad turi	Foizda
1	Foyda solig‘i	30
2	Aylanmadan olinadigan soliq	100
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	70
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	100
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
7	Yig‘imlar	100
8	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100

Халқ депутатлари Пайариқ туман
Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-49-3-7-100-K/22-сон қарорига
4-илова

Tuman mahalliy byudjetining xarajatlar yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Ming so‘mda

T/R	Muassasa nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	O‘zgartirishlar summa		
					Oshgan	Kamaygan	Jami
1	Tuman madaniyat bo‘limi	7 089	200	56	**0**	**-2 470**	**-2 470**
2	Tuman madaniyat bo‘limi (Teatr)	7 082	310	56	**0**	**-1 600**	**-1 600**
3	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	7 098	602	251	**0**	**-5 530**	**-5 530**
4	Tumandagi bolalar va o‘smirlar sport maktablari	7 083	610	245	**9 600**	**0**	**9 600**
	Jami	**7 000**	**0**	**0**	**9 600**	**-9 600**	**0**